

**VIRUSLI GEPATIT B NI DAVOLASHDA DORI VOSITALARI BILAN BIRGA  
ZUBTURUM O'SIMLIGINI QO'LLASHNING SAMARASI**

Raximova Xusnidaxon Abdukarimovna

Farg 'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Xalq tabobati va farmakologiya kafedrasi assistenti

[husnidahonrahimova@gmail.com](mailto:husnidahonrahimova@gmail.com)

Xasanova Madinabonus Ilshodovna

Abdurasulova Mohloroy Baxtiyorjon qizi

A'zamjonov Azizbek Akramjon o'g'li

Farg 'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabalari

[hasanovamadinabonus288@gmail.com](mailto:hasanovamadinabonus288@gmail.com) [mohlaroyabdurasulova3@gmail.com](mailto:mohlaroyabdurasulova3@gmail.com)

[azizbekazamjonov09@gmail.com](mailto:azizbekazamjonov09@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada virusli gepatit B kasalligi, kasallik alomatlari, davolash vositalari, zubturum o'simligi, uning xalq tabobatida ishlatalishi, kimyoviy tarkibi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** gepatit B, antivirus, gepatoprotektor, fitoterapiya, zubturum, bargizub, bakteritsid.

Gepatit B - antroponoz virusli kasallik. Sezilarli gepatotrop xususiyatlarga ega qo'zgatuvchi - gepadnaviruslar oilasiga mansub *gepatit B virusi* (HBV) tomonidan chaqiriladi. Virus turli fizik va kimyoviy omillarga qarshi juda chidamlilik bilan ajralib turadi.

Gepatit B bilan og'rigan bemorlarning ko'pchiligidagi kasallik alomatlari uzoq vaqt davomida kuzatilmaydi. Virus tibbiy ko'rik yoki homiladorlik uchun ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan laboratoriya qon tahlillari o'tkazilishida tasodifan aniqlanib qolishi mumkin. Bunday hollarda maxsus tahlil - «avstraliyalik antigenni» aniqlash uchun qon tahlili amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mavjud dori vosistalarining hech biri bemor organizmini virusdan to'liq tozalay olmasa ham, ular virus ko'payishini to'xtatishi va shu tariqa jigarning shikastlanishini kamaytirishi mumkin. Asosiy terapiya dasturi kasallikning shakli va inson organizmining individual xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanadi.

Gepatit B surunkali bosqichga o'tishi bilan bemorlarga kompleks davolash buyuriladi:

1. Antivirus ta'sirga ega preparatlar (adefovir, lamevudin va boshqalar);
2. Jigar sirrozi rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin bo'lgan preparatlar (interferonlar);

3. Immunomodulyatorlar, bunda bemorning tanasida immunitet reaktsiyalari normallashadi;
4. Gepatoprotektorlar, ularning vazifasi hujayra darajasida jigarning gepatit B virusiga qarshiligini oshirish;
5. Maxsus vitamin va mineral komplekslar.

Surunkali hepatitda fitoterapiya, ya’ni, giyohlardan foydalanish jigar xujayralaridagi modda almashinuvini yaxshilash hisobiga uning faoliyatini yaxshilashga qaratilgan. Surunkali hepatitni davolash uzoq muddat, ba’zida bir necha yillar davom etadi. Giyohlarning damlamalarini ichish esa antibakterial, o’t xaydovchi, shamollashni tuzatuvchi va spazmolitik ta’sir qilib, jigar to‘qimalaridagi salbiy o‘zgarishlarning oldini oladi. Gepatit B ni davolashda dorilar bilan birga giyoxlardan Zubturumni damlab ichish xam yaxshi samara beradi.

**Zubturum (Plantago)** - zubturumdoshlar oilasiga mansub 1-2 va ko‘p yillik o‘tlar turkumi. 260 tacha turi ma’lum. O‘zbekistonda 6 turi uchraydi. 4 turidan dorivor o‘simlik sifatida foydalaniladi. Zubturumning yana bir nomi bargizub Yunonlar va Rimliklar uning urug‘i bilan dezenteriyani davolashgan. Ibn Sino esa zubturumni qon oqishini to‘xtatishda va yaralarni tuzatishda tavsiya etiladi. Olovdan kuygan joylarga qulqoq osti shishlariga foyda qiladi. Barglarining shirasini qulqoqqa tomizilsa og‘riqni bosadi, ildizi chaynalsa yoki qaynatmasi bilan og‘iz chayqalsa tish og‘rig‘ini to‘xtatadi.

Tibbiyotda asosan ikkita - burga bargizub va katta bargizub turlari ishlatiladi. Tarkibida vitamin S va K, shilliq, achchiq va oshlovchi moddalar, limon kislota mavjud.

Bargizub preparatlari balg‘am ko‘chirish, og‘riq qoldirish, bakteritsid va yallig‘lanishlarni tuzatish xususiyatiga ega. Bargizub barglaridan tayyorlangan damlama va qaynatma bronxit, bronxial astma, ko‘kyo‘tal va silni davolashda xam qo’llaniladi. Sarxil barglarining suvi oshqozon kislotaligi pastligi bilan kechuvchi surunkali gastritda, shuningdek, oshqozon va o’n ikki barmoq ichak yarasida foya qiladi. Bunday suv oshqozon shirasi ajralishini yaxshilaydi, qonda gemoglobinni ko‘paytirib, xolesterinni kamaytiradi.

Bundan tashqari, bargizub preparatlari xoletsistit, buyrak yallig‘lanishi, sariq kasalligi, dermatitni davolashda, bachadon, bavosil, oshqozondan qon oqishini to‘xtatishda ishlatiladi. Bargi yaralarga qo‘yilsa, tuzalishiga yordam beradi. Unutmang, bargizub preparatlari oshqozon kislotaligi ortiqligi bilan kechuvchi oshqozon yarasida tavsiya etilmaydi.

**Kimyoviy tarkibi:** vitamin C - 44,9 mg, vitamin PP - 0,8 mg, vitamin B2 - 0, 28 mg, vitamin A - 0,08 mg, kaliy - 382 mg, kalsiy - 241 mg , fosfor - 41 mg , magniy - 22 mg , marganez - 1,2 mg ni tashkil qiladi.

Yuqumli kasalliklar shifoxonasidagi bemorlarning 58 nafarini davolashda dorilar bilan birga Zubturum o‘simligini ko‘ngillilarga tavsiya qilganimizda, ularning 20 nafari dori bilan birga Zubturum damlamasini ichishdi. Barcha zubturum damlamasi ichgan kasallarimda labarator-klinik sog’ayish kuzatildi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar bemorlar Gepatit B ni davolashda tavsiya qilingan virusga qarshi dorilar bilan birga Zubturum o'simlik bargi damlamasi istemol qilsa kasallik samarali davo topadi. Bundan tashqari, zubturum o'simligining qaynatmasi oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakdagi yaralarni davolaydi. Oshqozonni tozalaydi. Dermatitni davolaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Li Boris Nikolayevich “Xalq tibbiyoti” darsligi
2. Аюпов Равшан Хамдамович “Dorivor giyohlar” 45-46 bet
3. Raximova Xusnidaxon Abdukarimovna “Virusli gepatit B ni davolashning samarali usullari” FJSTI.
4. Raximova Xusnidaxon Abdukarimovna //VIRUSLI GEPATIT B NI DAVOLASHNING SAMARALI USULLARI// «ИНТЕРНАУКА» Научный журнал. № 10(233). Март 2022 г. 15-17 стр
5. Raximova Xusnidaxon Abdukarimovna, Sotivoldiyev Ayubxon Baxromjon o'gli //L-TIROKSIN 50 BERLIN-XEMI DORI VOSITASINING ORGANIZMGA TASIRI// "ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANISHI" RESPUBLIKA ILMUY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASI 2021. 27- NOYABR. 215-219
6. Raximova Xusnidaxon Abdukarimovna, Sotivoldiyev Ayubxon Baxromjon o'gli //GIPOTENZIV DORI VOSITALARI// "ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANISHI" RESPUBLIKA ILMUY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYA. 27- DEKABR 2021. 78-83
7. Рахимова Х.А //ЗНАЧЕНИЕ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ// PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. VOLUME BERLIN 11 DECEMBER 2021. 237-239
8. Raximova X.A. //BEMORLARGA DORI MODDALARINI TAYINLASHDA DORILARNING HAYOT UCHUN XAVFLI KOMBINATSIYALARINI BILISHNING AHAMIYATI// «ФАРМАКОЛОГИЯ ВА ФАРМАКОТЕРАПИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ» Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Урганч. 2021 йил 17 ноябрь 428-429
9. Rahimova Husnida Abdukarimovna //Adverse Changes in the Cardiovascular System Observed when using a Combination of Antihypertensive Drugs// CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES Volume: 03. Issue: 02. Mar-Apr 2022. 478-481
10. Рахимова Хуснидаон Абдукаримовна //КОРОНАВИРУС ИНФЕКЦИЯСИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА ДАВОЛАЩДА ТАРКИБИДА“ВИТАМИН С” САҚЛАЙДИГАН ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ//АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ

КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ СБОРНИК ТЕЗИСОВ ФЕРГАНСКОГО  
МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДОРОВЬЯ 30.11.2022 // 131-  
137

11. X.RAHIMOVA, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyat instituti Farmakognoziya fani o'qituvchisi// Dorivor o'simlik xususiyati // YOSHLAR OVOZI № 40 (16446) 2021-YIL 3-NOYABR, 12-13
12. X.Рахимова //Наматакнинг дорилик хусусияти //Нефтчи овози 2021 10 ноябр 4
13. Шахзода Хасанзода //АНИОКСИДАНТНАЯ АКТИВНОСТЬ ОТДЕЛЬНЫХ КОМПОНЕНТОВ БАД —Buyrak-shifo// Международный научный журнал «Научный импульс» № 4(100), часть 2. Ноябрь, 2022. 29-36 стр.
14. S.H.Homidchonova, N.A. Mahmudova //Bioecological and physiologicalbiochemical features of cassocks (Lemnaceae) in culture// Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. 10-11-2022. 27-31 pages
15. Хомидчонова Шахзода Хасанзода //ДЕЙСТВИЕ АЛКАЛОИДОВ ВЫДЕЛЕННЫЕ ИЗ РАСТЕНИЙ ACONITUM TALASSICUM ИХ ВЛИНИЕ НА СОКРАТИТЕЛЬНУЮ АКТИВНОСТЬ НА ГЛАДКИХ МЫЩЦ АОРТЫ КРЫСЫ// International Journal of Education, Social Science Humanities, FARS Publishers. Volume-11| Issue-1| 2023. 73-79 pagesю
16. Маматқурова Махбуба Тоҷиалиевна //Фекал орал механизм билан юқувчи ичак инфекцияларининг эпидемиологик таҳлили// Журнал «Студенческий вестник» № 17 (67), часть 4, 2019 г.
17. Маматкурова Махбуба Тоҷиалиевна //Изучение многолетней динамики заболеваемости вирусным гепатитом А и оценить эффективности вакцинации// «ИНТЕРНАУКА» Научный журнал № 15(144) Апрель 2020 г. Часть 1. 53стр
18. Mamatkulova Mahbuba //To Study Motion of the Grain Mixture on Sieve Surface// INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH IN SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY. Volume 7, Issue 3, March 2020.
19. Makhbubakhon Tojaliievna Mamatkulova //Determination of Susceptibility of Bacterial Infections to Antibiotics and Prevention of Nosocomial Infections// International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 29, No. 9s, (2020), pp. 4278-4282.
20. Makhamad Tojalievich Toshboltaev, Makhbuba Mamatkulova //NORMATIVE METHOD FOR THE SUBSTANTIATION OF THE COMPOSITION AND QUANTITY OF MACHINES REQUIRED FOR 1000 HECTARES OF COTTON FIELD IN THE CONDITION OF ZBEKISTAN// International Journal of Agriculture, Environment and Bioresearch. Vol. 06, No. 01; 2021. Page 68.
21. Рӯзибоева Ёрқиной Равшановна, Маматқурова Махбуба Тоҷиалиевна // ЭНТЕРОВИРУСЛИ КАСАЛЛИКЛАРДАН ВИРУСЛИ ГЕПАТИТ А КАСАЛЛИГИНИНГ КЎП ЙИЛЛИК ДИНАМИКАСИНИ ЎРГАНИШ ВА ИХТИЁРИЙ

**“FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS  
INTERDISCIPLINARY SCIENCES”**

**ITALIA**

ЭМЛАШ САМАРАДОРЛИГИГА БАХО БЕРИШ// Международный научный журнал  
«Научный импульс» № 7(100), часть 1. Февраль, 2023. 183-186 стр.

